

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI № 184**Toshkent sh.**“ 17 ” 24.06.2022 2022 yil

“ORZU MED GLOBAL” MChJ (keyingi o`rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi jamiyat direktori U.A.Abdillaev bir tomondan, 9504 (keyingi o`rinlarda “Xaridor” deb yuritiladi) nomidan muzya asosida harakat qiluvchi tashkilot rahbari Jurisenov A.B. Ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. “Sotuvchi” “Xaridor”ga shartnomada belgilangan muddatda o`z tasarrufida bo`lgan tayyor dori-darmon mahsulotlari, tibbiy asbob-uskunalar, dorivor damlamalar (biologik faol qo`shimchalardan tarkib topgan oziqlantiruvchi mahsulotlar), turli vitamin majmualardan tarkib topgan og`riq qoldiruvchi va davolovchi mahsulotlarni (keyingi o`rinlarda “Mahsulot” deb yuritiladi), buyurtmada ko`rsatilgan hajm va assortimentni tasdiqlovchi hujjatlar bilan ushbu shartnoma shartlariga ko`rsatilgan tartibda yetkazib berish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

T/R	Dori darmonlarning nomi	O'cho'v birligi	Miqdori	Narxi	QQS		Summa
					QQS foiz	QQS summasi	
21.20.47 10-0004	1 SORVELL 200 ml (sorbitol 6.0g, natriy laktat 1.9g, natriy xlorid 0.6g, kaliy xlorid 0.03g, magniy xlorid 0.02g, kalsiy xlorid 0.01g)	Dona	200	330000	QQS siz	QQS siz	6600000
Jami:							6600000

II. TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

- 2.1. Mazkur shartnomaning umumiy summasi 6600000 o'ltuz million o'ltuz yuz ming () so`mni tashkil qiladi. “Sotuvchi” tegishli davrda tomonlarning o`zaro kelishuviga muvofiq belgilangan 30 % avans to`lovidan so`ng 10 kun muddat ichida tovarlarni “Xaridor”ga yetkazib beradi.
- 2.2. “Xaridor” taqdim etilgan xujjatlarga va hisob fakturaga asosan 10 bank ish kunida qolgan 70% ni to`liq to`lab beradi.

III. TOMONLARNI MAJBURIYATLARI VA HUQUQLARI

- 3.1. “Sotuvchi”dan shartnomani bajarish uchun zarur bo`lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ xujjatlar bilan ta`minlashni talab qilish;
- 3.2. “Sotuvchi”dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifat, assortimentdagi tovarlarni yetkazib berilishini talab qilish;
- 3.3. Yetkazib beriladigan tovarlar qiymatini xaqqoniyligi «Xaridor» zimmasida bo`ladi,
- 3.4. “Sotuvchi” quyidagi xuquq va majburiyatlarga ega:
 -Yetkazib berilgan tovarlar uchun oldindan xaq to`lanishini va amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzil-kesil xisob qilinishini Xaridordan talab qilish;
 -Tovarlarini mazkur shartnomaga asosan “Xaridor” buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda yetkazib berish. Olinadigan tovarlar narxiga byudjet tashkiloti javob beradi.

IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

- 4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak, agar tomonlar o`z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta`minlansa, shartnoma bajarilgan deb xisoblanadi.
- 4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o`zgartirishga yo`l qo`yilmaydi, qonun xujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.
- 4.3. “Xaridor” ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud tovarlarning tegishli turkumlarini Yetkazib berish sanasini o`zgartirishga xaqlidir, bu xaqda “Yetkazib beruvchi”ni buyurtmanomada ko`rsatilgan sana boshlanishidan kamida 3 kun oldin xabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

5.3 Tovarlarini yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan taqdirda "Yetkazib beruvchi" "Xaridor"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.2. Yetkazib berilgan tovar uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda "Xaridor" "Yetkazib beruvchi"ga muddati kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.3. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va tovar yetkazib berish muddati kechiktirilishi yoki to'liq yetkazib berilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

VI. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

6.1 Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita sud organlariga murojaat qilishga xaqlidir.

6.3. Fors-major xolati, ya'ni tomonlarga bogliq bo'lmagan holatlar (yongin, suv toshqini shu kabi yengib bo'lmaydigan kuchlar) yuz bergan taqdirda majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Mazkur shartnoma «Xaridor» va «Yetkazib beruvchi» tomonidan tasdiqlanib so'ng g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi va 2022yil 31 dekabr qadar amal qiladi.



7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va xisob-kitob to'lik tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolinishi sharti bilan xaqiqiy xisoblanadi, Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

IX. TARAFLARNING REKVIZITLARI :

"SOTUVCHI"	"XARIDOR"
<p align="center">"ORZU MED GLOBAL" MChJ</p>	
<p>Manzil: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 19 mavze, 21 uy 95 xonadon.</p>	<p>Manzil: Республика болалар ортопедия маркази Ташкент вилояти Қибрай тумани Олийтоғ кўчаси 8/й x/p: 4014 1086 0272 4870 7320 1054 002</p>
<p>Bank: ATIB "Ipoteka bank" Mehnat filiali,</p>	<p>Bank: ХВКМ Марказий банк Бosh Бoshқармаси MFO: 2014 ИНН: 201679066 ОКЭД: 86100</p>
<p>H/r: 2020 8000 4053 1037 7001; STIR: 307950625;</p>	<p>H/r: Тел: 71 2604960; 71 2604937</p>
<p>MFO:00423;</p>	<p>MFO: Молий Вазирлиги Ғазначилиги x/p: 2340 2000 3001 0000 1010</p>
<p>Direktor: Jo'rayeva O.A.</p>	<p>STIR: ИНН: 201122919</p>
<p>M.O'.</p>	<p>Direktor:</p>
	<p>M.O'.</p> 

ХУҚУҚШУНОС ХУЛОСАСИ

« 14 » 01 2022 йил 187 -сонли
шартноманинг ҳуқуқий таҳлили.

Тошкент ш. « 14 » 01 2022 йил.

Мен, Республика болалар ортопедия маркази
ҳуқуқшуноси Азимов Нодирбек Азадович, Республика
Республика болалар ортопедия маркази ва
ООО "Daxi Med Global" ўртасида
« 14 » 01 2022 йилдаги тузилган шартномани
ўрганиб чиқдим.

Ушбу шартномани тузилишини ҳуқуқий таҳлил қилиш
жарёнида қуйдагилар аниқланди:

- шартномада томонлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар
Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси ва Ўзбекистон
Республикасининг «Хўжалик юритувчи субъектлар
фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги
қонунига асосан белгилаб берилган;
- шартнома шартлари амалдаги қонун ҳужжатлари
талабларига мос;
- шартнома бўйича тарафларнинг жавобгарлиги меъёри
ва низоларни ҳал этиш тартиби қонун ҳужжатлари талабларига
мос.

ХУЛОСА:

Ушбу шартноманинг мазмуни Ўзбекистон
Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари талабларига
жавоб беради.

Республика болалар ортопедия
маркази ҳуқуқшуноси Н.А.Азимов
(имзо)